

**ROEMERIA HYBRIDA (L)DC O'SIMLIGI TARKIBIDAGI  
ALKALOIDLARNI O'RGANISH**

***Axmedova Z.Q.***

*CAMU xalqaro tibbiyot universiteti katta o'qituvchisi*

***Davronov B.A.,***

*CAMU xalqaro tibbiyot universiteti DI 1522-guruh talabasi*

***Qodirov F.A.***

*CAMU xalqaro tibbiyot universiteti assistenti*

Roemeria ko'knorguldoshlar ya'ni Papaveraceae Juss oilasiga mansub o'zida alkaloidlarni saqlovchi, hushmanzara, qizil, binafsha rang holda gullaydigan o'simlik. Roemeriyani 31 dan ortiq turi topilgan, ularni 13 turiga nom berilgan, qolganlari tafsiflanish jarayonida.

Roemeria hybrida Roemeriyalar turkumiga mansub bir yillik, begona, efemir o't o'simlikdir. O'zbek tiliga tarjima qilinganda "duragay" degan ma'noni beradi. Uning lotincha nomini Iogann Yakob Roemer(1763-1819yil) nomiga atab qo'yilgan. *Roemeria hibridaning* ilmiy nomlarini sinonimlari bilan ilmiy manbalarda turlicha nomlanadi.

Roemeria hibrida kam uchraydigan o'ziga hos tur hisoblanadi. Roemerialarning barcha turlari Turkiyada ko'proq uchraydi. Bundan tashqari tabiiy sharoitda O'rta yer dengizi mintaqalarida, Qrim, Kavkaz, Eron va Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida ko'p tarqalgan[2]. Roemeria hybrida – binafsha gulli ko'knordan farq qiladi. Uning barglari odatda ikki karra patsimon, chuqur qirqilgan, tuklar bilan qoplangan. Sharq qizg'aldog'i tojbargi quyuc, binafsha rangli, pastida dog'i yo'q, bo'yi 5-50 sm oralig'ida bo'ladigan o'simlik. Ildizi tik va turg'un holda, o'sadigan joyiga qarab ba'zi toshloq joylarda ildizi tarvaqaylagan shaklda bo'ladi. Kurtaklari 8-13 mm uzunlikda , gullarini uzunligi 2-10sm, urug'ining uzunligi 1mm, kulrang rangda buyrak shaklida bo'ladi. Ko'sakchasi silindirsimon, to'mtoq tuzilishli bo'ladi. Dorivorlik hususiyatlari

jihatidan juda qimmatli shifobahsh hususiyatga ega. Terapevtik maqsadlarda bu o'simlikning barglari va ildizlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday qimmatbaho shifobahsh xususiyatlarning mavjudligi ushbu o'simlik tarkibida juda ko'p remeridin va protopin alkaloidlari [3], shuningdek boshqa foydali moddalar mavjudligi bilan izohlanadi. Xalq tabobatida bu o'simlikning barglari va ildizlari, teri toshmalari, urolitiozli yaralarda , frunkullar(chipqon) va karbonkul(ko'k yara)larni davolashda tavsiya etiladi. Roemeria hibrida kuchsiz narkologik va bakteriologik ta'sirga ega. Buyrak tosh kasalligida tosh tushiruvchi , diareya uchun immun quvvatlovchi va yallig'lanishga qarshi vosita sifatida xalq tabobatida barglarining damlamasi qo'llaniladi. O'simlikdan haddan tashqari me'yoridan ortiq iste'mol qilinganda zaharlanish holati yuz berishi mumkin. Shuni e'tiborga olish molikki, bu o'simlikning barglari jun va ipakni qora ranglarga bo'yash xususiyatiga ega.

Tadqiqot Roemeria hybrida o'simligini Farg'ona viloyati Vodil va Oqbilol qishloqlari atrofidan urug'lash mavsumida (may oyida) terib olishdan boshlandi. Shuni takidlash joizki Farg'ona viloyatida o'sadigan ushbu o'simlikning kimyoviy tarkibi avval o'rganilmagan. O'simlikning urug'i, urug' qobiq'i , tanasi va barg qismlari bir-biridan alohida ajratib olindi va quritildi . Har bir qism alohida (tana qismi-1042.5gr, barg qismi-326.5gr, urug' qobiq qismi-540gr, urug' qismi-454.5gr) etanolda ekstraksiya qilindi. Ajratib olingan ekstrakt qismlariga 5 %li limon kislota eritmasi (pH=2) qo'shildi. Xloroformda yuvib olindi. Xloroformli qismi ajratib olingandan song, kislotali qismiga pH=8 bo'lguncha natriy gidrokarbonat qo'shildi. Tana qismidan-1.86gr(0.1784%), urug' qobiq qismidan-1.2gr(0.222%), barg qismidan 0.52gr(0.159%), alkaloidlar yig'indisi ajratib olindi. Xulosa qilib aytganda o'simlik turli qismlaridan ajratib olingan alkaloidlar yig'indisi yupqa qatlamli xromotografiya qilinganda o'zaro o'xshash ekanligi aniqlandi. Adabiyot ma'lumotlariga solishtirilganimizda Misrda o'rganilgan o'simlik alkaloidlari miqdoriga nisbatan O'zbekistonda o'suvchi Roemeria hybrida o'simligi tarkibidagi alkaloidlar foiz miqdori ko'pligi aniqlandi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. B.Go'zler, T.Go'zler, I.E.Mete, A.J.Freyer, H.Guinaudeau and M.Shamma; Tetrahedron, 43,1765 (1987)
2. Флора ССР. Т-7.с.596-598. Род555.
3. С.Ю.Юнусов. Алкалоиды. Ташкент.ФАН.1981.